

“AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI” –BO‘LAJAK KUTUBXONACHILAR UCHUN ZARURIY QO‘LLANMA SIFATIDA

Abdujalilova Naziraxon

Qarshi davlat universiteti filologiya fakulteti 4-kurs talabasi.

Annotatsiya: Axborot-kutubxona faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslari bo’lajak kutubxonachilar faoliyatining qonuniy hamda tartibli tarzda amalga oshirishini ta’minlab beruvchi vosita hisoblanadi. Zamonaviy kutubxonachi, avvalo, sohaga tegishli bo’lgan me’yoriy huquqiy hujjatlar bilan to’liq xabardor bo’lishi, Internet tizimidan unumli foydalana bilishi, elektron kutubxona va elektron baza bilan mukammal darajada ishlay olishi, kitobxonga masofadan xizmat ko’rsata bilishi, qidiruv tizimlarini yaxshi tushunishi lozim.

Kalit so’zlar: Kitob, kadrlar salohiyati, avtomatlashtirish, audiovizual, kitobxon formulyari, inventar raqami, kutubxonachi, kommunikasion texnologiyalar, elektron kutubxona, elektron katalog.

Аннотация: Нормативно-правовая основа информационно-библиотечной деятельности является инструментом, обеспечивающим законное и упорядоченное осуществление деятельности будущих библиотекарей. Современный библиотекарь, прежде всего, должен полностью знать нормативно-правовые документы, относящиеся к данной сфере, уметь эффективно использовать систему Интернет, уметь безупречно работать с электронной библиотекой и электронной базой данных, уметь оказывать удаленное обслуживание, обязательно хорошее понимание поисковых систем.

Ключевые слова: Книга, кадровый потенциал, автоматизация, аудиовизуальные средства, читательская форма, инвентарный номер, библиотекарь, коммуникационные технологии, электронная библиотека, электронный каталог.

Abstract: The regulatory and legal basis of the information-library activity is a tool that ensures the legal and orderly implementation of the activities of future librarians. A modern librarian, first of all, should be fully aware of the regulatory legal documents related to the field, be able to use the Internet system effectively, be able to work perfectly with the electronic library and electronic database, be able to provide remote service to the reader, search must understand the systems well.

Keywords: Book, personnel potential, automation, audiovisual, reader form, inventory number, librarian, communication technologies, electronic library, electronic catalog.

KIRISH

Butun dunyo kabi O'zbekistonda ham kutubxonachilik ishining rivojlanishi, sohaning istiqbolli kutubxonachi kadrlar salohiyati, bilim darajasi, tillarni o'zlashtirganligi, kitob va axborot xizmati ko'rsatishdagi ilmiy ekanligiga bog'liqdir. Yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, xorijiy tillarni o'zlashtirish, asosiysi oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan bo'lajak kutubxonachi mutaxassislarni huquqiy jihatdan savodxon, hamda sohaga oid me'yoriy huquqiy hujjatlarni puxta o'zlashtirishi, shu sohada yangi yondoshuvlarning paydo bo'lishiga va salohiyatli kutubxonachi kadrlar yetishib chiqishiga imkon beradi.

O'zbekistonning jahon axborotlar dunyosiga faol kirib borishi Respublika hayotining barcha sohalarida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi, jumladan, axborot texnologiyalarini tatbiq qilishga katta e'tibor berila boshlandi. Kutubxonalarning ta'lim tizimidagi o'rni va mavqei hamda bajaradigan vazifalari, elektron kutubxonalar, kutubxonalarni avtomatlashtirish to'g'risidagi bir qator maqolalar respublikaning vaqtli matbuotida va ilmiy jurnallarida e'lon qilindi. Bu holat respublika jamoatchiligining kutubxonachilik sohasiga befarq emasligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, kutubxonachi xodimlar mamlakatimizda kutubxonachilik sohasi faoliyatini tartibga soluvchi, sohada tub burilish yasagan hujjat ya'ni O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"¹ qonunini nafaqat kutubxonachilik tizimida balki butun respublika axborot infratuzilmasida olib borilayotgan islohotlarni, shu yo'nalishga mansub me'yoriy -huquqiy hujjatlarning ildizlari, omillarini chuqur o'zlashtirishlari talab etiladi.

Barcha soha kabi kutubxonachilik sohasida ham huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash va ish o'rni bilan ta'minlash bugunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamon talabiga ko'ra, so'nggi yillarda imzolangan qaror, farmonlar talablaridan kelib chiqib, kutubxonalar jamiyatning axborot-kutubxona bilan ta'minlanishini belgilab beruvchi tarkibiy markazga, shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantirish bazasiga aylanishi lozim. Fan-texnika taraqqiy etgan davrda kutubxonalarning missiyasi o'zgardi, kutubxonachining professional faoliyatida ham me'yorlar, tartib tamoyillar, qoidalar yangilanishiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Endi tadbirlarning soni, kitobxonlar va berilgan kitoblar soni kabi ko'rsatkichlar axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini baholashda bosh omil bo'lolmaydi. Kutubxonachidan audiovizual va elektron hujjatlar, zamonaviy texnika bilan ishlash malakasi va o'z elektron resurslarini yaratish, jamg'armadagi nashrlarni raqamlashtirish kabi yangicha ishlarni bajarish, kitobxon uchun kutubxona ya'ni kitobga olib boradigan yo'llar yaqin va oson bo'lishi talab etilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011., 15-son, 146-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018., 03/18/476/1087-son

Shu paytga qadar kutubxonalarda xodimlar kutubxona ichida tartibni saqlagan, kelgan kitobxonga kitobxon formulyasi ochib unga berilgan nashrning inventar raqami va kitobning nomini qayd qilib qo'ygan, yaroqsiz holga kelib qolgan kitoblarning ro'yxatini tuzgan, kataloglar byurosiga yangi kelgan kitoblarning kartochkasini kiritilgan xolos. Bugungi kunda esa zamonaviy kutubxonachidan ko'p narsa talab etilayotganligi tabiiy. O'ylab qaraydigan bo'lsak bugunning kutubxonachisining vazifalari aslida bu qadar oddiy va oson emas. Zamonaviy kutubxonachi, avvalo, sohaga tegishli bo'lgan me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan to'liq xabardor bo'lishi, foydalana bilishi, Internet tizimidan mohirona foydalana bilishi, elektron kutubxona va elektron baza bilan ishlay olishi, kitobxonga masofadan xizmat ko'rsata bilishi, qidiruv tizimlarini yaxshi tushunishi lozim. Qo'shimcha holda XXI asr kutubxonachisi – foydalanuvchilarga kerak bo'lgan ma'lumotning aniq va tez qidiruvini ta'minlovchi shaxs hamdir. Bir so'z bilan aytganda, bu kasb yaxshi bilim, xushmuomalalik va sabrni talab qiladi. Kutubxonachi – ijodkor inson bo'lmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda “, shunday ekan, taraqqiyot sari shaxdam odimlayotgan O'zbekistonning har qaysi davlat, har qaysi millatdan o'zining intellektual salohiyati, ma'naviyati bilan qudratli bo'lishi, bu yutuqlarga erishish uchun inson tafakkurining buyuk kashfiyoti deyilmish kitob va kutubxonalarda ekan, demak bu maskanlarda xizmat qiladigan mutaxassislardan har qachongidan, har zamondagidan ko'ra yuksak salohiyat, huquqiy savodxonligi talab etiladi.

Axborot-kutubxona faoliyati tizimida me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjud bo'lishi, amal qilinishi alohida ahamiyat kasb etib, u, birinchi navbatda, aniq huquqiy normalarga tayanadi. Me'yoriy-hujjatlar faoliyat jarayonida uchta bosqichni o'zida namoyon etadi, bular quyidagilar:

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlash
2. Hujjatlarni qabul qilish.
3. Hujjatlar ijrosini amalga oshirish.

Me'yoriy hujjatlar tizimini zamonaviy boshqaruv fanlari ko'lamida tahlil etish imkoniyati, aytish mumkinki, axborot-kutubxona faoliyatidagi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar ketayotgan hozirgi davrda kutubxonachilik sohasi taraqqiyotini ham sifat bosqichidan yanada yuksaltirishga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida”gi PQ-381

sonli Qarori² O'zbekistonda yangi tipdagi axborot-resurs va axborot kutubxona markazlari tashkil qilishga keng yo'l ochgan bo'lsa, 2011-yil 13-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni³ axborot kutubxona muassasalari infratuzilmasini zamon talablari asosida yangidan tashkil qilishga, axborot-kutubxona faoliyatini tartibga solish uchun huquqiy asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-fevraldagi "2011-2015 yillarda axborot kommunikasion texnologiyalari asosida axborotkutubxona va axborot resurslar bilan xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1487 Qarori esa sohani rivojlantirishga mo'ljallangan Davlat dasturini tasdiqlash va amalga oshirishga imkoniyat yaratdi. "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonunda axborot kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari quyidagicha belgilangan:

Axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash; foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlash.

Yangidan tashkil qilingan axborot-resurs markazlari oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

ta'lim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy ta'limga oid mazmundagi axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;

elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;

Shaxsning ma'naviy boy va barkamol ijodiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda o'zidagi va o'zidan uzoqdagi axborot-kutubxona resurslaridan foydalanish asosida O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosidan foydalanuvchilarni bahramand etadi;

axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;

boshqa axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

madaniy, ta'lim, axborot dasturlari va loyihalarini hamda boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006., 25-26-son, 228-modda; 2013., 45-son, 584-modda; 2016., 46-son, 528-modda; 2017-.

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011, 15-son, 146-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018., 03/18/476/1087-son; 22.07.2020., 03/20/629/1087-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021., 03/21/683/0375-son

tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi. Axborot-resurs markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, joriy etish uchun ehtiyoj katta. Mazkur maqolada axborot –kutubxona muassasalarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarinining qanchalik darajada muhim ekanligi haqida xulosalar keltirilgan.

Axborot-kutubxona faoliyatidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning maqsadi: Bo'lajak kutubxonachi - kitobxon va foydalanuvchilarning kitob mutolaasi orqali o'z ongini yanada shakllantirishi, o'z ustida ishlashi, yanada ko'p o'qishga intilishi, tinimsiz izlanishi, kitobxonlarga o'qishga tavsiya etiladigan manbalarni va resurslarni tavsiya etish kabi kutubxonachi salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan.